

жозлар билан ҳамкорлик муносабатларини самарали йўлга қўйиш учун ривожланган давлатлар тажрибасини қўллаш;  
чакана банк хизматларини рақамлашти-

риш ва уларни тартибга солиб турувчи меъёрий-ҳуқуқий асосларни такомиллаштириш лозим.

#### Манба ва фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Икрамова Н.Р. Ўзбекистонда чакана банк хизматлари: хориж тажрибаси ва ривожланиш истиқболлари. // «Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар» илмий-электрон журнали. 1-сон, январь-февраль, 2014 йил.
2. Brown S. Retail. Location: a mikro-scale perspective. Aldershot: Avebury, 1992. P. 11.
3. Управление розничным маркетингом. Пер. с англ. / Под ред. Д.Гилберта. – М., 2005. – С. 10-11.
4. Киселева И.А. «Система математического моделирования банковской деятельности в переходной экономике» автореферат диссертация на соискание ученой степени доктор экономических наук. – М., 2000.
5. Жуков А.И. Банковская система России. – М.: Проспект, 2009. С. 186.
6. Matadiyarov Z. Evolution and development steps of remote banking services in commercial banks (international experience), *International Finance and Accounting: Vol. 2018: Iss. 5, Article 27.* Available at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2018/iss5/27>
7. Науменко А.А. «Развитие услуг коммерческих банков для розничных клиентов» автореферат диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Саратов, 2009.
8. Калистратов Н.В., Кузнецов В.А., Пухов А.В. Банковский розничный бизнес. – М., 2006. С. 78.
9. [Matadiyarov Z. Тижорат банкларида масофавий банк хизматларининг меъёрий-ҳуқуқий жиҳатдан ривожланиш босқичлари. Архив научных исследований. 2020. 1\(24\). Извлечено от https://tseu.scienceweb.uz/index.php/archive/article/view/2873](https://tseu.scienceweb.uz/index.php/archive/article/view/2873)
10. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 15 ноябрдаги «Ўзбекистон Республикасининг Марказий банки тўғрисида»ги ЎРҚ-582-сонли қонуни.
11. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 7 ноябрдаги «Банklar ва банк фаолияти тўғрисида»ги ЎРҚ-580-сонли қонуни.
12. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 7 ноябрдаги «Тўловлар ва тўлов тизимлари тўғрисида»ги ЎРҚ-578-сонли қонуни.
13. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 15 ноябрдаги «Валютани тартибга солиш тўғрисида»ги ЎРҚ-573-сонли қонуни.
14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60-сонли фармони.
15. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги «2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида»ги ПФ-5992-сонли фармони.
16. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 2 мартдаги «2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили»да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида»ги ПФ-5953-сонли фармони.
17. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 28 ноябрдаги «Ипотека кредити механизмларини такомиллаштиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПФ-5886-сонли фармони.
18. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги ««Рақамли Ўзбекистон – 2030» стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-6079-сонли фармони.
19. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 23 мартдаги «Банк хизматлари оммабоплигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-3620-сонли қарори.
20. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 18 майдаги «Миллий тўлов тизимини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-3945-сонли қарори.
21. [Matadiyarov Z. Raqamli transformatsiya jarayonida bank xizmatlarini masofadan kursatishni innovatsion rivojlantirish istiqbolлари. // Scientific Journal of «International Finance & Accounting». 2022.](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a22)
22. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки бошқарувининг 2021 йил 6 сентябрдаги 20/5-сонли қарорига асосида «Мижозларни рақамли идентификация қилиш тартиби тўғрисида»ги низом.
23. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки бошқарувининг 2021 йил 23 сентябрдаги 3030-7-сонли қарорининг 1-иловасида «Банк хизматлари истеъмолчилари билан ўзаро муносабатларни амалга оширишда тижорат банкларининг фаолиятига қўйиладиган минимал талаблар тўғрисида»ги низоми.
24. [Банк қарталари асосида банклараро чакана тўлов тизимлари – Ўзбекистон Республикаси Марказий банки \(cbi.uz\).](https://cbi.uz/)



#### O'ZBEKISTONNING GLOBAL SUVEREN KREDIT REYTINGIDAGI O'RNINI YAXSHILASH YO'LLARI

Shamusalov Sarvar –  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
mustaqil tadqiqotchisi

[https://doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss1/a22](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a22)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada suveren reyting va kreditlarning ilmiy-nazariy jihatlari va ularga ta'sir etuvchi moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlar tadqiq etilgan. Shuningdek, xalqaro reyting agentliklari tomonidan O'zbekistonning suveren kredit reytingini baholash amaliyoti va so'nggi yillardagi xalqaro indeks va reytinglardagi o'rnini tahlil etilgan, reytinglardagi o'rniga ta'sir etuvchi salbiy omillar tizimlashtirilgan hamda 2024-yilgacha bo'lgan prognozlarini ishlab chiqilgan. Tahlillar natijasida mamlakatimizning Global suveren kredit reytingidagi o'rnini yaxshilashga qaratilgan ilmiy takliflar tayyorlangan.

**Tayanch so'zlar:** suveren kredit reytingi, Standart&Poor's reyting agentligi, O'zbekistonning suveren kredit reytingi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha YaIM, xorijiy investitsiyalar, tashqi qarz, kredit reytingini baholash metodologiyasi.

## ПУТИ УЛУЧШЕНИЯ ПОЗИЦИИ УЗБЕКИСТАНА В ГЛОБАЛЬНОМ СУВЕРЕННОМ КРЕДИТНОМ РЕЙТИНГЕ

**Шамусаров Сарвар -**

*Ташкентский государственный экономический университет, Независимый исследователь*

**Аннотация.** В данной статье исследуются научно-теоретические аспекты суверенного рейтинга и кредитов и влияющие на них финансово-экономические показатели. Также международные рейтинговые агентства проанализировали практику оценки суверенного кредитного рейтинга Узбекистана и его положения в международных индексах и рейтингах за последние годы, систематизировали негативные факторы, влияющие на его положение в рейтингах, и разработали прогнозы до 2024 года. В результате анализа подготовлены научные предложения, направленные на улучшение позиции нашей страны в Глобальном суверенном кредитном рейтинге.

**Ключевые слова:** суверенный кредитный рейтинг, рейтинговое агентство Standard&Poor's, суверенный кредитный рейтинг Узбекистана, средний ВВП на душу населения, иностранные инвестиции, внешний долг, методология оценки кредитного рейтинга.

## WAYS TO IMPROVE UZBEKISTAN'S POSITION IN THE GLOBAL SOVEREIGN CREDIT RATING

**Shamusalov Sarvar -**

*Tashkent State University of Economics, Independent researcher*

**Abstract.** In this article, the scientific-theoretical aspects of sovereign rating and loans and the financial-economic indicators affecting them are studied. Also, international rating agencies analyzed the practice of assessing Uzbekistan's sovereign credit rating and its position in international indexes and ratings in recent years, systematized negative factors affecting its position in ratings, and developed forecasts until 2024. As a result of the analysis, scientific proposals aimed at improving the position of our country in the Global sovereign credit rating were prepared.

**Keywords:** sovereign credit rating, Standard&Poor's rating agency, sovereign credit rating of Uzbekistan, average GDP per capita, foreign investment, external debt, credit rating methodology.

**Kirish.** Covid-19 pandemiyasi va so'nggi vaqtlarda kuzatilayotgan global iqtisodiyotdagi energetika inqirozi natijasida inflyatsiya jarayonlari tezlashdi. Pandemiyadan keyin yalpi talabning oshishi ishsizlik darajasi oshishiga olib kelgan bo'lsa-da, energetika inqirozi oqibatida narxlarning ko'tarilishi ichki iste'molga, shuningdek, davlatlar o'rtasidagi tashqi savdoning kamiyishiga olib kelmoqda. Davlatlar o'zining iqtisodiyotini qo'llab-quvvatlash uchun bunday vaziyatda xalqaro moliya institutlaridan tashqi qarz mablablari jalb qilishga har qachongidan ko'proq ehtiyoj sezmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lum bo'lishicha, davlat obligatsiyalari eng arzon qarz vositasi hisoblanadi. O'zbekiston ham rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalangan holda 2018-yil London fond birjasida ilk marotaba o'zining xalqaro obligatsiyalarini chiqarib, qarz mablag'larini jalb qilish amaliyotini yo'lga qo'ydi. Xalqaro moliyaviy munosabatlarda, xususan, xalqaro qarz kapitali va investitsiya resurslarini mamlakatga jalb qilishda mamlakatning xalqaro miqyosda tan olingan reyting va indekslardagi tutgan o'rnini muhim.

Suveren kredit reytingi mamlakatning to'lov qobiliyatini baholovchi eng asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, bugungi kunda jahonda 150 ga yaqin suveren kredit reytinglarini baholovchi agentliklar mavjud. Fitch, Standart&Poor's va Moody's reyting agentliklari dunyo miqyosida e'tirof etilgan reyting agentliklari bo'lib, o'zlarining bir asrdan ziyodroq faoliyati davomida ko'plab kompaniya va mamlakatlarining suveren kredit reytingini baholab kelmoqda.

Suveren kredit reytingi mamlakatlarning xalqaro moliyaviy munosabatlarga faol ishtirok etishida ularning iqtisodiy-moliyaviy potensialini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich sifatida qaraladi. Boshqacha qilib aytganda, suveren kredit reytingi mamlakat yoki mustaqil tashkilotlarga beriladigan maxsus reyting bo'lib, investorlarga ma'lum bir mamlakat iqtisodiyotiga kiritgan sarmoyalarini qaytarib olish ehtimoli yoki unga ta'sir qiluvchi omillar xavf-xatarlari, shuningdek, hukumatning davlat qarzi va qarz uchun foiz to'lovlarini o'z vaqtida to'lash qobiliyati va qanchalik darajada qarzlarni to'lashga tayyorligini baholovchi ko'rsatkichdir. Kredit reytingi yuqori bo'lishi mamlakatning iqtisodiyotiga bo'lgan ishonchni bildiradi.

Shu sababli so'nggi yillarda O'zbekistonning xalqaro reyting va indekslarda egallagan o'rnini mustahkamlash maqsadida dastlabki amaliy qadam sifatida Prezidentimizning bir nechta qaror va farmonlari qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-iyuldagi "Tashqi moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3877-sonli, 2019-yil 25-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o'rnini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4210-sonli qarorlari, 2019-yil 7-martdagi "Xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston Respublikasi reytingini yaxshilashga oid chora-tadbirlarni tizimlashtirish to'g'risida"gi PF-5687-

sonli va 2020-yil 2-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indeksdagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida”gi PF-6003-sonli farmonlari qabul qilindi [11].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Fundamental tadqiqot sifatida xorijlik olimlar Liu, Thakor va Ederington suveren reyting va kreditlar bo‘yicha yo‘qotishlarni qoplash xarajatlari o‘rtasidagi korrelatsion bog‘liqlikni birinchilardan bo‘lib tadqiq etishgan [1]. Undan keyingi tadqiqotlarda qator olimlar Hand, Dichev, Predescu, B.Imbierowicz va M.Wahrenburg kredit reytingi o‘zgarishi va korporativ qimmatli qog‘ozlar bahosi o‘rtasidagi empirik bog‘lanishlarga bag‘ishlangan bir qancha tadqiqotlar olib borishgan [2]. Shu tarzda xorij iqtisodchi olimlari F.Packer va C.Suthiphongchai olib borgan tadqiqotlariga asosan kredit reytingining o‘zgarishi foiz stavkalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular o‘rtasidagi bog‘liqlik 92 %ni ko‘rsatdi va ushbu ko‘rsatkich reyting agentliklari tomonidan tasdiqlangan[3]. Peter Reusens va Christophe Croux fikriga ko‘ra, suveren kredit reytingi suveren hukumatning kreditga layoqatliligining o‘lchovi hisoblanadi [9]. Shuningdek, har bir suveren kredit reytingi reyting qo‘mitasi tomonidan belgilanadi, u suverening kredit layoqatiga ta‘sir qiluvchi turli omillarni baholaydi va kerakli xulosalarni o‘zida aks ettiradi.

Xorijlik iqtisodchi olimlar Teixeira, Silva va Ferreiralarning fikriga ko‘ra, suveren kredit reytinglari mamlakatlarning xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatini va undan foydalanish shartlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu reytinglar suveren inqirozni bashorat qilishda asosiy vazifani bajarishi mumkin, deb hisoblanadi. Ularning tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, suveren kredit reytinglari davlatlar va ularning kompaniyalarining rentabelligi va kapital nisbatlariga ham ta‘sir qilishini ko‘rsatishi bilan bir qatorda, suveren kredit reytinglari investorlar uchun muhim ekanligini isbotlaydi [10]. Shu bilan birga, iqtisodchi olim E.Bissoondoyal-Bheenickning olib borgan izlanishlari suveren reyting modeli ko‘rsatkichlarini shakllantirishga bag‘ishlangan bo‘lib, bugunchi kunda reyting agentliklari tomonidan u keltirgan bir qancha ko‘rsatkichlardan foydalanishi ushbu olimning suveren kredit reytingiga katta hissa qo‘shgani bilan izohlanadi [4].

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A.Burxanov [5] va B.Usmonov [6] ham barqaror iqtisodiy rivojlanishda reyting agentliklarining baholash mezonlari bilan birga mamlakatning moliyaviy xavfsizligi hamda iqtisodiy samaradorligini oshirishda bir qator ko‘rsatkichlarni taklif etgan bo‘lib, ushbu ko‘rsatkichlar mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘shishiga o‘z ta‘sirini o‘tkazishini ta‘kidlab o‘tishgan. Shuningdek, F.Sindarovning fikriga ko‘ra, mamlakat-

ning suveren kredit reytingi uning qarz olish qobiliyatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi bilan birga u hukumat tomonidan chiqarilgan har qanday obligatsiyalar foiz to‘lovlarini qanday darajada bo‘lishiga salbiy yoki ijobiy ta‘sir qilish jarayonini aks ettiradi[7]. Bu esa mamlakatda iqtisodiy strategiyani to‘g‘ri tanlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada global miqyosda mamlakat suveren kredit reytinglarini baholovchi Standart&Poor’s reyting agentligining kredit reytinglarini baholash metod va usullaridan, shuningdek, iqtisodchi olimlarning shu mavzu bo‘yicha olib borgan tadqiqot natijalaridan foydalanilgan. Bundan tashqari qiyosiy va mantiqiy tahlil, ma‘lumotlarni to‘plash, guruhlash va boshqa usullar qo‘llanilgan.

**Tahlil va natijalar.** 2015-yildan boshlab global darajada mamlakatlarning suveren kredit reytinglarini baholovchi reyting agentliklari tomonidan, xususan, Standart&Poor’s agentligi O‘zbekistonning suveren kredit reytingini baholay boshladi. Bugungi kunda S&P agentligi Fitch va Moody’s agentliklari kabi O‘zbekiston suveren kredit reytingini bir yilda ikki marta baholab kelmoqda.

Suveren reytinglar hukumat davlat qarzlarini o‘z vaqtida to‘lash qobiliyati va tayyorligini baholovchi ko‘rsatkichdir. Suveren kredit reytinglar yuqori bo‘lishi rivojlanayotgan davlatlar uchun muhim ahamiyatga ega. Kredit reytinglari qanchalik yuqori bo‘lsa, hukumatning xalqaro moliya bozorlariga chiqarilgan suveren obligatsiyalarining risk darajasi shunchalik past bo‘ladi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun xalqaro moliya bozorlaridan past foizli yirik hajmdagi moliyaviy (qarz va investitsion) resurslarni jalb qilish imkoniyatini beradi.

2021-yilning 4-iyun oyida S&P xalqaro reyting agentligi O‘zbekiston Respublikasining suveren kredit reytingi bo‘yicha e‘lon qilingan hisobotda O‘zbekiston suveren kredit reytingi «BB-» (barqaror) darajasida baholangan edi [15]. Bunda reytingni aniqlashda iqtisodiy nuqtayi nazardan nimalar hisobga olinganligini birma-bir ko‘rib o‘tamiz.

Raqamlarga e‘tibor beradigan bo‘lsak, pandemiya oqibatida 2020-yilgi ko‘plab ko‘rsatkichlar deyarli o‘smagan. 2024-yilga borib, O‘zbekiston YaIM 82 mlrd.ga yetib, aholi jon boshiga o‘rtacha 2.2 ming AQSh dollaridan to‘g‘ri kelishi prognoz qilingan. Pandemiya sabab yuzaga kelgan jahon iqtisodiyotidagi inqiroz barcha davlatlar qatori O‘zbekistonning ham iqtisodiyotiga jiddiy salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Iqtisodiyotning o‘shish darajasi pasayib, tashqi qarz hajmining sezilarli darajada o‘shishiga olib kelmoqda. Shunday bo‘lsa-da, fikrimizcha, 2023-2024-yillarda hozirgi inqiroz ta‘sirida prognoz qilingan ko‘rsatkichlarga erishish uchun O‘zbekistonning iqtisodiy potentsiali yetarli darajada.

## O'zbekiston Respublikasining 2015-2024-yillardagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari [15]

O'zbekiston Respublikasining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari										
	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Nominal YaIM (trln. so'mda)	210,2	242,5	302,5	406.6	510.1	580.2	662.8	753.1	854.1	968.6
Nominal YaIM (mlrd \$)	82	82	59	50	58	58	62	68	74	82
Jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha YaIM(%)	2.6	2.5	1.8	1.5	1.7	1.7	1.8	1.9	2.0	2.2
Real YaIMning o'sishi (%)	7.4	6.1	4.5	5.4	5.8	1.6	4.8	5.2	5.5	5.5
Jon boshiga real YaIMning o'sishi (%)	5.6	4.3	2.7	3.6	3.8	-0.3	2.8	3.2	3.5	3.5
Real investitsiyalarning o'sishi (%)	9.4	4.1	19.4	29.9	38.1	-8.2	5.0	5.0	5.0	5.0
Investitsiya / YaIM	24.1	22.1	29.0	40.5	40.7	37.5	38.4	39.0	39.2	39.7
Jamg'arma / YaIM	24.6	22.5	31.5	33.4	34.8	32.0	32.0	33.1	34.0	34.6
Eksport / YaIM	15.3	14.9	21.8	28.0	30.3	26.3	24.9	23.3	21.6	20.1
Real eksportning o'sishi (%)	2.3	11.1	1.3	9.3	20.7	-18.7	6.0	4.0	3.0	3.0
Ishsizlik darajasi (%)	5.2	5.2	5.8	9.3	9.0	10.5	10.0	10.0	9.0	9.0

Tashqi iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlil qilinda (2-jadval), avvalo, to'lov balansiga alohida e'tibor beriladi. Chunki to'lov balansini mamlakatga kirib kelayotgan jami xorijiy valyuta bilan mamlakatdan chiqib ketayotgan barcha valyutalarning farqini ifodalovchi ko'rsatkich bo'lib, bu ko'rsatkichning ijobiy bo'lishi ichki ishlab chiqarish potensialini ko'rsatadi, salbiy bo'lishi ko'plab tovar va xizmatlarni o'zi ishlab chiqarmay, xorijdan import bo'lishi va mamlakatdagi valyutaning xorijga chiqib ketayotganligini bildirib, bu iqtisodiyot uchun salbiy ko'r-

satkich sifatida qaraladi. 2-jadvalda to'lov balansining joriy hisobvaraqlar bo'yicha tushumlarga, joriy hisobvaraqlar bo'yicha tushumlarni YaIMga, savdo balansini YaIMga nisbati ko'rsatilgan. So'nggi yillarda iqtisodiyot hajmini kengaytirishga bo'lgan talab tufayli yangi ishlab chiqarish quvvatlari sonini oshirish maqsadida so'nggi yillarda xorijiy davlatlardan katta miqdorda zamonaviy ishlab chiqarish asbob-uskunalarini xarid qilinayotganligi sabab O'zbekistonning to'lov balansini salbiy ko'rsatkichga ega bo'lib kelmoqda.

## O'zbekiston Respublikasining 2015-2024-yillardagi tashqi iqtisodiy ko'rsatkichlari [12]

Tashqi iqtisodiy ko'rsatkichlar (%)										
Ko'rsatkichlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
To'lov balansini / Joriy hisobvaraqlar bo'yicha tushumlar	1.3	0.4	2.5	-7.3	-5.8	-5.4	-6.4	-5.9	-5.2	-5.2
To'lov balansini / Joriy hisobvaraqlar bo'yicha to'lovlar	6.4	1.8	7.4	-16.1	-12.9	-14.4	-16.7	-16.2	-15.4	-16.6
Joriy hisobvaraqlar bo'yicha tushumlar / YaIM	20.4	20.2	33.6	44.0	45.0	37.7	38.4	36.3	33.7	31.3
Savdo balansini / YaIM	-2.6	-2.9	-3.8	-13.6	-12.6	-10.8	-12.7	-11.9	-10.8	-10.2
To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar / YaIM	1.3	2.0	3.0	1.2	4.0	3.0	3.0	3.5	3.5	4.0
Yalpi tashqi moliyaviy ehtiyojlar / Joriy hisobvaraqlar bo'yicha tushumlar + valyuta zaxiralari	76.6	82.7	78.0	86.2	86.9	84.9	83.3	87.8	91.0	94.9
Qisqa muddatli qarz / Joriy hisobvaraqlar bo'yicha tushumlar	-79.7	-89.6	-76.5	-50.6	-22.6	-11.3	16.0	33.3	45.6	48.9
Qisqa muddatli qarz / Joriy hisobvaraqlar bo'yicha to'lovlar	-85.2	-91.3	-82.6	-43.6	-20.0	-9.9	13.7	28.7	39.5	42.0
Sof tashqi majburiyatlar / Joriy hisobvaraqlar bo'yicha tushumlar	-113.3	-128.8	-114.5	-99.6	-76.4	-93.7	62.0	36.3	15.0	1.3
Sof tashqi majburiyatlar / Joriy hisobvaraqlar bo'yicha to'lovlar	-121.1	-131.1	-123.7	-85.8	-67.6	-81.9	-53.2	-31.2	-13.0	1.1
To'lash muddati yaqin bo'lgan qisqa muddatli qarz / Joriy hisobvaraqlar bo'yicha tushumlar	29.0	33.5	30.0	29.3	26.1	42.0	52.1	56.0	58.5	60.0
Valyuta zaxiralari / Joriy hisobvaraqlar bo'yicha to'lovlar (oylik)	7.7	7.3	7.4	7.1	6.4	8.8	10.6	9.9	9.5	8.9
Valyuta zaxirasi (mlrd. \$)	9.907	11.336	15.243	15.59	18.33	24.4	23.59	22.796	22.065	22.9



## O'zbekiston Respublikasining 2015-2024-yillardagi fiskal ko'rsatkichlari [14]

Fiskal ko'rsatkichlar (%)										
Ko'rsatkichlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Fiskal balans/YaIM	0.3	-0.5	-1.9	-2.1	-3.9	-4.5	-5.8	-3.5	-3.1	-2.8
Sof qarzning o'zgarishi /YaIM	0	-3.3	-7.7	4.7	9.8	7.2	6.1	4.9	4.0	3.8
Davlat qarzi bo'yicha foizlar bo'yicha to'lovlar/YaIM	0.4	-0.4	-1.8	-2.0	-3.7	-4.2	-5.3	-3.0	-2.6	-2.2
Soliq tushumlari/YaIM	25.6	25.4	24.9	28.7	28.7	27.6	26.8	27.2	27.2	27.2
Byudjet xarajatlari /YaIM	25.3	25.9	26.8	30.8	32.6	32.0	32.6	30.7	30.3	30.0
Davlat qarzlari bo'yicha foiz to'lovlari / davlat umumiy daromadlari	0.5	0.5	0.2	0.4	0.6	1.0	1.8	1.9	2.0	2.1
Davlat qarzi/YaIM	9.1	8.6	20.2	20.7	29.7	38.4	42.2	43.4	43.4	43.1
Davlat qarzi/Soliq daromadlari	35.7	34.0	81.2	72.4	103.1	139.3	157.4	159.4	159.5	158.5
Sof davlat qarzi/YaIM	-11.7	-13.4	-18.4	-9.0	2.6	9.5	14.4	17.6	19.5	21.0
Likvidli aktivlar/YaIM	20.8	22.0	38.7	29.8	27.1	28.9	27.8	25.8	23.9	22.1

O'zbekistonda 2017-yilgacha davlat byudjeti faqat profitsit bilan rejalashtirilgan bo'lsa, 2016-2017-yillardan boshlangan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar ta'sirida 2017-yildan boshlab davlat byudjeti defitsit bilan ijro etila boshladi. 3-jadvalda fiskal balansning YaIMga, davlat qarzining YaIMga, davlat qarzining soliq daromadlariga, davlat byudjet xarajatlarining YaIMga nisbati keltirilgan. 2019-yildan boshlab davlat qarzining YaIMga nisbati sezilarli darajada tez oshgan. Bunda 2019-yil London fond birjasida O'zbekistonning suveren obligatsiyalari sotuvga chiqarilishi ham qarz miqdorining o'sishiga sabab bo'lgan. Shuningdek, 2020-yilda ham London fond birjasida O'zbekistonning suveren obligatsiyalari ham milliy valyutada, ham xorijiy valyutada chiqarilgan edi.

Bu jadvalda biz uchun yangi bir ko'rsatkich berilgan va bu ko'rsatkich real samarali valyutalar kursining o'sishi deb nomlangan. Undan tashqari banklar faoliyatiga bog'liq bo'lgan bir qator ko'rsatkichlar ham berilgan. Real samarali valyutalar kursi milliy valyutaning u bilan savdo qiladigan davlatlarning milliy valyutasiga nisbatan qadrini o'lchaydigan o'lchov bo'lib, u milliy valyuta qiymatini uning asosiy savdo sheriklari valyutalarining o'rtacha og'irligi bilan taqqoslaydi. Real samarali valyuta kursining o'sishi eksportning qimmatlashishi va importning arzonlashishini anglatadi; shuning uchun o'sish savdo raqobatbardoshligi yo'qolganligini ko'rsatadi. Shuningdek, 2021-yil 6-dekabr kuni S&P xalqaro reyting agentligi O'zbekistonning reytingini qayta baholadi. Unga ko'ra, «BB-» (barqaror) darajasida baholangan. Unga ko'ra, mamlakatda fiskal va tashqi qarzlari tez sur'atlar bilan o'sishi, ammo kelgusi 12-24 oy ichida mo'tadil darajada saqlanib qolishi qayd etilgan.

Qayd etilishicha, xizmatlar, ishlab chiqarish, tabiiy resurslar sektorlarining o'sishi, asosiy savdo hamkor davlatlar iqtisodiyotining tiklanishi, investitsiya dasturlari va davlat korxonalarini islohtlari

iqtisodiy o'sishning asosini tashkil etib, 2021-yilda O'zbekiston real yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sish sur'ati 6,5 foizni, 2022-2024-yillarda o'rtacha 5,5 foizni tashkil qilishi prognoz qilingan. Shuningdek, yashirin iqtisodiyotning qisqarishi va davlat korxonalarini faoliyatining yaxshilanishi bilan soliqdan tushadigan daromadlar ortadi. 2021-2024-yillarda fiskal defitsit YaIMga nisbatan o'rtacha 3,8 foizni, davlatning sof qarzi yuki mo'tadil darajada saqlanib qolib, 2024-yilgacha sof davlat qarzining o'zgarishi YaIMga nisbatan o'rtacha 5 foizni tashkil qiladi. Mamlakatning tashqi qarzi 2018-yildan beri sezilarli darajada ortgan va o'sishda davom etmoqda, ammo o'sish sur'ati sekinlashmoqda.

O'zbekistonning kredit reytingini pasaytiruvchi omillar sifatida quyidagilar qayd etilgan:

- fiskal va tashqi zaxiralar tez sur'atlarda yoki sezilarli darajada kamayishi;
- to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining pastligi natijasida jalb qilinayotgan qarzi oshishi va tashqi aktivlarning kamayishi;
- iqtisodiyotning dollarga (dollarlashuvi) bog'liqlik darajasi oshishi;
- yirik davlat korxonalarini moliyaviy holatining zaiflashuvi natijasida hukumat tomonidan davlat korxonalarining qarzlari to'lanishi [10].

Pandemiya sababli 2020-yildagi iqtisodiy pasayishdan keyingi 2021-yilda butun dunyo global yalpi talabning oshganligi kuzatilmoqda, xususan, O'zbekistonda ham. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra, 2021-yilda O'zbekistonning YaIM 7.4 %ni tashkil qilgan [12]. Bu statistik ma'lumot iqtisodiy o'sish Jahon banki (prognoz - 6.2 %) [13] va S&Pning prognoz (6.5 %) [14] ko'rsatkichlaridan ham yuqori bo'lganligini ko'rsatadi. Umuman olganda, suveren kredit reyting agentliklari tomonidan O'zbekiston suveren kredit reytingini baholash dastlab 2018-yilda amalga oshirilgan bo'lsa, o'tgan 5 yil davomida 14 marta baholandi.

## O'zbekistonning 2018-2023-yillardagi suveren kredit reytingi [13]

Agentlik	Reyting	Kutilma	Reyting e'lon qilingan vaqt
Moody's	Ba3	barqaror	2023-yil, yanvar
Fitch	BB-	barqaror	2022-yil, sentabr
Fitch	BB-	barqaror	2022-yil, oktabr
Fitch	BB-	barqaror	2022-yil, aprel
Moody's	B1	ijobiy	2021-yil, iyul
S&P	BB-	barqaror	2021-yil, iyun
Fitch	BB-	barqaror	2021-yil, aprel
S&P	BB-	salbiy	2020-yil, iyun
Fitch	BB-	barqaror	2020-yil, aprel
Moody's	B1	barqaror	2019-yil, fevral
S&P	BB-	barqaror	2018-yil, dekabr
Fitch	BB-	barqaror	2019-yil, oktabr
Fitch	BB-	barqaror	2019-yil, may
Fitch	BB-	barqaror	2018-yil, dekabr

Yuqoridagi 4-jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2018-2022-yillar davomida har 3 ta agentlik ham reyting darajasini deyarli o'zgartirmagan, lekin 2023-yili Moody's reyting agentligi «Ba3» (barqaror) darajada baholagan, ya'ni reytingni bir daraja oshirdi. Bu O'zbekistonning moliya tizimi barqaror darajada oshib borayotganligidan dalolat beradi va uning ko'rsatkichini aniq, yaqqol ifodalaydi.

Moody's hisobotida O'zbekiston suveren kredit reytingini oshiruvchi omillar sifatida quyidagilar sanab o'tilgan:

- davlatning fiskal holatiga putur yetkazmasdan iqtisodiyot va moliya sektorida mustahkam raqobat muhitining yaratilishiga qaratilgan murakkab islohotlar amalga oshirilsa;

- fiskal defitsitini moliyalashtirish uchun ichki imkoniyatlarni safarbar etish, milliy valyutada qarz jalb qilishning rivojlanirilishi orqali defitsitni moliyalashtirish uchun davlat tashqi qarzigacha bog'liqlik kamaytirilsa.

Moody's agentlik ikki yilda bir marta O'zbekiston kredit reytingini baholaydi. O'zbekistondagi so'nggi makroiqtisodiy o'zgarishlar va amalga oshirilayotgan islohotlar bo'yicha ma'lumotlar agentlikka tegishli vazirlik va idoralar tomonidan berib boriladi. 2022-yil davomida "Moody's" tomonidan 36 ta mamlakatning reyting bahosi yoki reyting kutilmasi pasaytirilganligini hisobga olsak, O'zbe-

kistonning reytingi oshishi pandemiyadan keyingi global inqirozli davr uchun ijobiy holat hisoblanadi.

#### Xulosa va takliflar

- yuqori kredit reytinglari mamlakatning o'zining oldidagi barcha moliyaviy majburiyatlarini bajara olish qobiliyatini, ya'ni kreditga layoqatlili-gini bildirsa, past kredit reytinglari moliyaviy majburiyatlarini bajara olish darajasi pastligini bildiradi;

- yuqori suveren kredit reytinglari mamlakatga kirib keladigan xorijiy investitsiya va qarz kapitali hajmiga to'g'ridan to'g'ri ijobiy ta'sir qilishini e'tiborga olib, davlat o'zining reytingini yaxshilashga doimiy ravishda harakat qilishi zarur;

- suveren kredit reytinglari nisbiy ko'rsatkich hisoblanib, agentliklarning makroiqtisodiy prognoz ko'rsatkichlari har doim haqiqiy ko'rsatkichlarga to'g'ri kelavermaydi.

Suveren kredit reytinglari jahon moliya bozorlari ishtirokchilari uchun axborotlar asimmetriyasini kamaytiruvchi asosiy vosita sifatida kreditlik tashkilotlari, investitsion kompaniyalar va qarz bozorlarining boshqa ishtirokchilari uchun juda katta ahamiyatga ega. Fikrimizcha, nafaqat davlat, balki rivojlangan davlat va xususiy aksiyadorlik jamiyatlari kredit reytinglarini baholatib, ularning qimmatli qog'ozlarini jahon moliya bozorlarida sotishda kredit reyting agentliklari bilan bir necha yo'nalishda hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishi zarur.

#### Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Pu Liu and Anjan V. Thakor *Journal of Money, Credit and Banking* Vol. 1984, 6, No.3, pp. 344-351 (8 pages).
2. Imbierowicz B. and Wahrenburg M. *Wealth transfer effects between stockholders and bondholders. The Quarterly Review of Economics and Finance*, 2013, 53 (1):23 – Interest Yields, Credit Ratings and Economic Characteristics of State Bonds: An Empirical Analysis: Note.
3. Packer F. and Suthiphongchai C. *Credit Default Swaps auf Staatsschuldtitel. Bank für internationalen Zahlungsausgleich (Ed.): Quartalsbericht*, 2003, pages 89-99.
4. Bissoondoyal-Bheenick E. *An analysis of the determinants of sovereign ratings. // Global Finance* 1. 2005.
5. Aktam Usmanovich Burkhanov and Madina Mansur qizi Eshmamatova. *The Ways for Improvement of Investment Strategy in the Period of Digital Economy. In The 5th International Conference on Future Networks & Distributed Systems (ICFNDS 2021). Association for Computing Machinery, New York, NY, USA, 2021, 655-662.*
6. Bunyod Usmonov. *Evaluation Of Efficiency Of Capital Management In Joint Stock Companies In The Textile Sector: In Case Of Uzbekistan. Asian Journal of Research in Business Economics and Management*. 2022, 12 (1), pp. 40-50.

[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=Dm2-vAAAAA&citation\\_for\\_view=Dm2-vAAAAA:u5HHmVD\\_u08C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Dm2-vAAAAA&citation_for_view=Dm2-vAAAAA:u5HHmVD_u08C)

7. Sindarov F. Standart&Poor's Global Reyting agentligi va O'zbekistonning reytingini baholash amaliyoti. *International Finance and Accounting*, 2022. (1), 25.

8. S&P Global Ratings. "Research Update:Uzbekistan Outlook Revised To Stable From Negative On Reduced Near-Term Fiscal And External Risks; 'BB-/B' Affirmed"-June 4, 2021.

9. Reusens P. & Croux C. Sovereign credit rating determinants: A comparison before and after the European debt crisis. // *Journal of Banking & Finance*. 2017, 77, 108-121.

10. Teixeira J.C., Silva F.J., Ferreira M.B. & Vieira J.A. Sovereign credit rating determinants under financial crises. // *Global Finance Journal*, 2018, 36, 1-13.

11. <https://lex.uz/uz>

12. <https://disclosure.spglobal.com/ratings/en/regulatory/searchresult/searchType/Entity/searchTerm/Uzbekistan>

13. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts-2>

14. <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan>

15. <https://www.spglobal.com> - S&P Global Ratings

16. <https://www.fitchratings.com/research/sovereigns/fitch-affirms-uzbekistan-at-bb-outlook-stable-01-04-2022>

17. <https://www.moody.com/>

18. Jumaev Nadir Hosiyatovich, Rizaev Nurbek Kadirovich, & Isaev Fakhriddin Ikromovich. (2023). ORGANIZATION OF TURKIC STATES: INTEROPERATION AND ACCOUNTING SYSTEM. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 13, 116–129. Retrieved from <https://journalzone.org/index.php/bjgesd/article/view/245>

19. Isaev, F. (2021). Мол-мулкни солиққа тортишни такомиллаштириш. *Iqtisodiyot Va Innovatsion Texnologiyalar*, (6), 326–333. Retrieved from [https://inlibrary.uz/index.php/economics\\_and\\_innovative/article/view/12224](https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/12224)

20. Исоев, Ф. (2022). РЕСУРС СОЛИҚЛАРИ ТАҲЛИЛИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ МЕТОДИКАСИ. *Iqtisodiyot Va ta'lim*, 23(5), 171–176. Retrieved from <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/742>



## ИЧКИ БАНК ОПЕРАЦИЯЛАРИНИ ҲАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР АСОСИДА ЮРИТИШ МАСАЛАЛАРИ

**Мурадова Муборак Юсуфжановна -**

Ўзбекистон Республикаси Банк-молия академияси

Бухгалтерия ҳисоби ва аудиткафедраси

таянч докторанти

[https://doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss1/a23](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a23)

**Аннотация.** Ушбу мақолада Ўзбекистон Республикасидаги тижорат банклари ички банк операцияларини ҳисобини ташкил қилиш, молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида банк мулклари, даромадлари ва харажатларини ҳисобини ташкил қилиш, молиявий ҳисоботларини трансформацияси муаммолар ва уларнинг ечими ёритилган.

**Калит сўзлар:** бухгалтерия ҳисоби, ички банк операциялари, мулклари, даромад, харажат, банк активлари ва мажбуриятлари, ҳисоб сиёсати.

## ВОПРОСЫ ОТЕЧЕСТВЕННЫХ БАНКОВСКИХ ОПЕРАЦИЙ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ

**Мурадова Муборак Юсуфжановна -**

азовый докторант кафедры «Бухгалтерский учет и аудит»

Академии банковского дела и финансов Республики Узбекистан

**Аннотация.** В данной статье освещены проблемы организации учета внутрибанковских операций коммерческих банков Республики Узбекистан, организации учета банковского имущества, доходов и расходов на основе международных стандартов финансовой отчетности, трансформации финансовой отчетности и пути их решения.

**Ключевые слова:** бухгалтерский учет, внутрибанковские операции, имущество, доход, расход, активы и обязательства банка, учетная политика.ти и пути их решения

## ISSUES OF DOMESTIC BANKING OPERATIONS ON THE BASIS OF INTERNATIONAL STANDARDS

**Muradova Muborak Yusufjanovna -**

Doctoral student of the Academy of Banking and

Finance of the Republic of Uzbekistan

**Annotation.** This article describes the problems and their solutions in the process of organizing the accounting of commercial banks in the Republic of Uzbekistan, the accounting system, the organization of accounting policies based on international standards of financial reporting, the main income and expenses from banking operations, and the transformation of financial reporting.

**Keywords:** accounting, accounting policies, income, expenses, financial reporting, international standards of financial reporting, bank assets and liabilities, net profit, financial instruments, financial control.